Demak, misolimizda xatolik $f_s = 0,3$ yul kuyarli ekan. SHuning uchun $f_x = +0,3$ $f_y = -0,06$ ni teskari ishora bilan nuqtalar orasidagi masofalarga mos xolda hisoblangan koordinata orttirmalariga tarqatiladi va to‘g‘rilangandan so‘ng to‘g‘rilangan koordinata orttirmalari ustuniga yoziladi.

Endi tuzatilgan koordinatalar orttirmasi

$$\Sigma \Delta + \text{ va } \Sigma \Delta x - \text{ farqi } f_x = 0$$

$$\Sigma \Delta + \text{ va } \Sigma \Delta y - \text{ farqi } \Sigma y = 0 \text{ bo‘lishi kerak}$$

6. Nuqtalar koordinatalarini hisoblash

Buning uchun berilgan birinchi nuqta koordinatasiga koordinata orttirmasi kushiladi. Natijada ikkinchi nuqta koordinatasi aniqlanadi.

$$X_1 = +484,48 \quad Y_1 = -946,46$$

$$\text{YA'ni} \quad X_{n+1} = X_n + \Delta x \quad \Delta x = -122,99 \quad \Delta y = +114,44$$

$$Y_{n+1} = Y_n + \Delta y$$

$$X_2 = 484,48 + (-122,99) = +361,49$$

$$Y_2 = -946,46 + 114,44 = 832,02$$

SHu kabi boshqa nuqtalar koordinatasi xam hisoblanadi va nuqta koordinatasi hisoblangandan so'ng oxirida 1 nuqta koordinatalari chiqsa to'g'ri hisoblangan bo'ladi.

Teodolit s'emkasini planini tuzish.

7. Koordinata turini chizish Koordinata turi teodolit s'emkasining planini uchun asos bo'lib xizmat kiladi. SHuning uchun koordinata turi yuqori aniqlikda chizilishi zarur. Koordinata turi Drobinnov chizgichida yoki oddiy chizgichda chiziladi. Koordinata turini chizish tavsiya kilingan adabiyotlarda berilgan.

Oddiy chizgichda koordinata turi chizish uchun chizma kog'ozda ramka uchun joy qoldirib to'g'ri turtburchak chiziladi. To'g'ri turtburchak tomonlarini 10 sm dan belgilab keyin tutashtiriladi. Natijada koordinata turi xosil bo'ladi.

8. Hisoblangan koordinatalar bo'yicha planda nuqtalar urnini belgilash.

CHizilgan koordinata turini rakamlar bilan belgilash kerak. Buning uchun hisoblangan X va U koordinatalar bo'yicha eng katta va eng kichik raqamlarga e'tibor beriladi. 1:1000 miqyosda tarx tuzilayotganda koordinata turini 100 metrli rakamlarga bulinadi. SHuni unutmaslik kerakki raqamlar absissa (X) janubdan shimolga (U) ukida esa garbdan sharqqa ortib boradi.

Koordinatalar bo'yicha nuqtalar urni belgilayotganda kaysi kvadratga to'g'ri kelishi aniqlab, so'ngra ortib kolgan son kundalang miqyosdan foydalanib quyiladi. Nuqtalar urni belgilangandan so'ng ingichka chiziqlar bilan tutashtiriladi. Nuqtalar urni to'g'ri belgilanganligini ular orasidagi ichki burchak va masofani o'lchash orqali aniqlash mumkin. Bunda xatolik 0,2 mm dan oshmaslik kerak.

9. Planga tafsilotni tushirish.

Buning uchun abrisdan foydalanib teodolit yuli bo'yicha tafsilot shartli belgilar bilan chiziladi. Joydagi tafsilotlar kaysi usulda o'lchangan bo'lsa usha usulda ya'ni perpendikulyarlar, kutbiy, kesishtirma usullarda tarxga chiziladi.

10. Planni jixozlash.

Teodolit yo'li kora tushda chiziladi. Nuqtalar urni 1,0 mm li doira bilan ko'rsatiladi. Xamma yozuvlar U ukiga parallel qilib yoziladi. Tafsilotlar uz shartli belgisida tushiriladi. Tafsilotlar chegara qalinligi 0,1 mm dan, orasidagi masofa 1 mm dan qoldirib nuqtalar kora tushda chiziladi.

Tush bilan chizib bulgandan keyin keraksiz, yordamchi chiziqlar uchirib tashlanadi. Tashqi turni ingichka chiziq bilan chiziladi. Undan 10 mm qoldirib qalinligi 2 mm chiziq chiziladi.

Kvadrat tur ichida chizilmaydi, balki ular kesishgan joy kuk tushda plyus shaklida 2 mm x 2 mm qilib chiziladi.

Talabalar vazifani bajarish uchun variantlar.

№	Azimut	X	U	№	Azimut	X	U
1	7 ⁰ 38'	+330,20	+340,50	1	141 ⁰ 26'	100,100	100,00
2	11 ⁰ 53'	+300,00	+300,00	2	329 ⁰ 35'	319,28	625,30
3	13 ⁰ 10'	380,80	+350,60	3	149 ⁰ 47'	471,18	925,30
4	242 ⁰ 32'	420,50	530,46	4	6 ⁰ 18'	613,25	641,15
5	275 ⁰ 46'	500,00	500,00	5	86 ⁰ 51'	629,30	711,50
6	68 ⁰ 09'	450,00	450,75	6	1 ⁰ 03'	422,15	440,50
7	43 ⁰ 30'	480,80	320,26	7	262 ⁰ 44'	618,21	718,90
8	83 ⁰ 05'	509,30	560,20	8	270 ⁰ 55'	328,70	100,50
9	312 ⁰ 44'	600,00	600,00	9	298 ⁰ 10'	108,50	111,70
10	105 ⁰ 40'	620,30	650,20	10	127 ⁰ 40'	480,60	496,70
11	308 ⁰ 22'	315,45	625,28	11	257 ⁰ 08'	517,50	611,20
12	196 ⁰ 16'	641,50	629,35	12	213 ⁰ 41'	101,80	104,50
13	139 ⁰ 31'	613,27	625,45	13	157 ⁰ 20'	829,62	813,20
14	316 ⁰ 42'	650,45	650,45	14	94 ⁰ 33'	728,81	768,29
15	12 ⁰ 34'	600,50	600,50	15	74 ⁰ 19'	118,29	621,33
16	190 ⁰ 34'	700,90	700,50	16	200 ⁰ 48'	709,31	801,26
17	167 ⁰ 17'	350,48	350,48	17	2 ⁰ 55'	625,50	625,75
18	246 ⁰ 47'	325,68	325,68	18	36 ⁰ 47'	307,80	358,85
19	63 ⁰ 25'	411,45	415,30	19	48 ⁰ 15'	319,81	350,60
20	4 ⁰ 08'	468,75	470,25	20	5 ⁰ 38'	417,13	420,15
21	275 ⁰ 07'	560,25	570,29	21	352 ⁰ 14'	517,18	557,15
22	0 ⁰ 45'	530,24	550,90	22	76 ⁰ 26'	915,58	920,00
23	137 ⁰ 29'	613,25	625,30	23	23 ⁰ 56'	935,00	950,00
24	19 ⁰ 21'	815,25	850,75	24	125 ⁰ 13'	819,21	820,00
25	53 ⁰ 21'	850,30	810,25	25	326 ⁰ 24'	900,00	900,00

Takrorlash uchun savollar:

1. Ichki bo'rchaklarni o'lchashdagi hatolikni hisoblash formulasi qanday?
2. Yo'nalishlarning azimut va rumb burchaklari qanday hisoblanadi?
3. Koordinata orttirmalari qanday hisoblanadi?
4. Tavsilotlar planga qanday tushiriladi?


BO'YLAMA PROFIL CHIZISH

Yer yuzasidagi bir yo'nalish Vertikal kesimining kichraytirilgan tasviri *profil* deyiladi. Profil bo'ylama va ko'ndalang bo'ladi. Profillar texnik nivelirlash qaydnomasidagi nuqtalarning hisoblangan balandligi bo'yicha chiziladi. Profilda gorizont masofalar gorizont mashtabda, Vertikal masofalar esa Vertikal mashtabda chiziladi.

Bo'ylama profil chizish uchun nivelirlash yilining uzunligi va profil mashtabiga qarab kerakli o'lchamda millimetrlilik qo'oz olinadi. Kanalning profilini chizishda gorizont mashtab 1:1000 (1 sm.da 10 m), Vertikal masofa mashtabi esa gorizont mashtabdan o'n marta yirik, ya'ni 1:100 (1 sm.da 1 m) qilib tanlanishi mumkin.

Bunda qo'oz tagidan 5 sm qoldirib balandligi 7 sm va uzunligi 5 sm bo'lgan tu'ri to'rtburchak chiziladi. Uning ostki qismidan boshlab 2 sm trassa planiga, 0,5 sm piketlar, 0,5 sm masofalar, 1,5 sm yer balandligi, 1,5 sm loyihaviy balandlik va 1 sm

nishoblikka joy qoldiriladi va ular orqali parallel chiziqlar chiziladi. Keyin 2 mm kenglikda Vertikal chiziq o‘tkaziladi. Vertikal chiziq tagidan 5 sm qoldirib, har bir santimetrغا yer balandliklarining eng past nuqtasidan yaxlitlab yoziladi. Piketlar va plyus nuqtalar o‘rni piketlar grafasida, masofalar grafasida esa plyusli nuqtalar masofasi yoziladi. Yer balandligi grafasiga texnik nivelirlash jadvalining 10-ustunidagi qiymatlar yoziladi. So‘ngra Vertikal ustunda belgilangan Raqamlar ko‘rsatiladi va ular o‘zaro tutashtiriladi. Natijada, nivelirlash trassasining profili hosil bo‘ladi (9-rasm).



Bo‘ylama profil PK₀-PK₅

Inshoot quriladigan joyini belgilovchi chiziq *loyihaviy chiziq* deyiladi. Ma’lumki, loyiha chiziqini o‘tkazishda, kanal qurishda inshootning pishiqligi, tuproq ishlari hajmining kam va arzon hamda uning foydalanish uchun qulay bo‘lishligi e’tiborga olinadi. Loyha chiziqi ma’lum bir nishablikda o‘tkaziladi. Kanalning bosh N_{bosh} va oxirgi nuqtasi N_{oxirgi} orasidagi nisbiy balandlikni shu nuqtalar orasidagi masofaning gorizontal qo‘yilishi d ga bo‘lgan nisbati *nishablik* deyiladi va u i bilan belgilanadi:

$$i = \frac{H_{oxirgi} - H_{bosh}}{d}$$

Masalan, $N_{bosh}=25$ m, $N_{oxirgi}=23$ m va ular orasidagi masofa 500 m bo‘lsa, joyning nishabligi quyidagiga teng:

$$i = \frac{23 - 25}{500} = -\frac{2}{500} = -0,004.$$

Loyihaviy chiziqlar o‘tkazilib, ularning nishabi aniqlangach, avval piket nuqtalarning loyihaviy balandliklari hisoblanadi:

$$H_{n-1} = H_{bosh} + i \cdot d = 25,00 + (-0,004) \cdot 100 = 24,60.$$

Demak, PK₁ ning loyiha balandligi 24,60 m ekan. Boshqa piket va plyusli nuqtalarning loyiha balandliklari shu taxlitda hisoblanadi. Hisoblangan loyiha balandligi loyiha chiziq o‘tgan balandliklarga to‘ri kelishi kerak.

Bir Vertikal chiziqdagi loyihaviy (N_l) va yer balandliklari (N_{yer}) farqi *ish balandligi* deyiladi.

$$I = N_l - N_{yer}.$$

I musbat bo'lsa, keltirib to'kiladigan, manfiy bo'lsa kesib olinadigan tuproq ishlari bo'ladi. Ish balandligi loyihaviy chiziqning ikki yoniga 1 sm uzoqlikda Vertikal holda yoziladi. Yer yuzasining balandligi loyihaviy balandlikdan katta bo'lsa, ishchi balandlik loyiha chiziqning ostiga, aksincha bo'lsa, loyiha chiziqning ustiga yoziladi.

Loyiha balandligi va yon chiziqlar, nishablikni ko'rsatuvchi chiziq va yozuvlar, loyiha chiziqi, trassa planining o'q chiziqi, ish balandliklari profilda qizil tush bilan tasvirlanadi.

Yer balandligi chiziqi bilan loyihaviy chiziqning kesishgan nuqtasida ish balandligi nolga teng bo'ladi va u nolinci nuqta deb ataladi. Bu nuqtaning ikki yonidagi piketdan bo'lgan uzoqligi aniqlanadi va profilda ko'rsatiladi. Nolinci nuqtaning oldingi nuqtadan uzoqligi (x_1) quyidagicha hisoblanadi:

$$x_1 = \frac{I}{I_1 + I_2} \cdot d,$$

bu yerda $I_1; I_2$ – nolinci nuqtadan ikki tomonidagi ishchi balandliklar; d – ular orasidagi masofa.

Profilda nolinci nuqta (0 raqami) va uning ikki tomonidagi masofalar ko'k tushda yoziladi. Nolinci nuqta balandligi quyidagicha aniqlanadi:

$$N_0 = N_{PK} + x \cdot i$$

bu yerda N_0 – nolinci nuqtaning loyiha balandligi; N_{PK} – oldingi nuqtaning loyihaviy balandligi; x – nolinci nuqtagacha bo'lgan masofa; i – nishablik.

Nivelirlash trassasining plani piketlash daftarchasida belgilangan masofalar va tafsilotlar bo'yicha shartli belgilar bilan tasvirlanadi.

Texnik nivelirlash jadvali

Ekatlar №	Piketlar №	Reykadagi sanoqlar			Nisbiy balandliklar (h), mm						Asbob gorizonti Ag, m	Balandligi H, m
		orqadagi a	oldindagi v	oralikdagi s	hisoblangan h_x		o'rtacha h_o'		tuzatilgan h_t			
1	2	3	4	5	6+	-	7+	-	8	9	10	
	Rr 77	1750			0,763		0,764		+0,764		22,500	
1		1686										
	PK ₀		0,987		0,765						23,264	
			0,921									
	PK ₀	2452			1280		1280		+1,280		23,264	
		2330										
2	PK ₁		1172		1280						24,544	
			1050									
	PK ₁	2587			1444		1444		+1,444	27,045	24,544	
		2501										
3	+ 75			0,615							26,4302	
	PK ₂		1143		1444						25,988	
			1057									
	PK ₂	534				1441		1441	-1,441		25,988	
		611										

4	PK ₃		1975							24,547
			2052		1234					
	PK ₃	481					1234	-1,234	25,054	24,547
5		507								
	+ 40			2011						23,043
	PK ₄		1715			1234				23,313
			1741							
	PK ₄	1816			0,295		0,294	-0,294	25,103	23,313
		1790								
	+ 67			2367						22,736
	Ung 15			1562						23,541
6	Ung 27			1427						23,676
	Chap 18			1367						23,736
	Chap 23			1215						23,888
	PK ₅		1521		0,293					23,607
			1497							
	PK ₅	2885			1874	1874		+1,874		23,607
7		2715								
	X		1011		1874					25,481
			0,841							
	X	2145			1161	1161		+1,161		25,481
8		2190								
	Rp96		0,984		1161					26,642
			1029							

$$\Sigma a = 28980 \quad \Sigma b = 20696 \quad \Sigma h_{iisoblangan} = 8284 \quad R_{p77} = 22,50 \quad R_{p96} = 26,642$$

$$\frac{\Sigma a - \Sigma b}{2} = \frac{\Sigma h_{xисобланган}}{2} = \Sigma h_{yp} \quad \Sigma h_{o'r.nazy} = H_{Rp96} - H_{Rp77} = 26,642 - 22,500 = 4,142$$

$$\Sigma h_{yp.amaliy} = \frac{28980 - 20696}{2} = \frac{8284}{2} = 4142 \quad fh_{chek} = 30\sqrt{2} = 30\sqrt{0.5} = 21 \text{ mm} \quad fh = \Sigma h_{amaliy} - \Sigma h_{nazariy} = 0$$

Talabalar o'z variantni jurnaldagi ro'yxat bo'yicha oladi

Tartib raqami	Rp77	Rp96
1	126,800	130,960
2	270,700	274,826
3	158,250	162,400
4	446,300	450,450
5	570,200	574,360
6	329,600	333,762
7	49,100	53,259
8	66,225	70,357
9	72,400	76,526
10	79,300	83,459
11	54,150	58,300
12	72,300	76,454
13	91,200	95,353

14	96,620	100,772
15	51,380	55,540
16	33,270	37,402
17	26,540	30,670
18	36,280	40,441
19	25,390	29,552
20	82,120	86,270
21	84,470	88,600
22	91,325	95,457
23	66,172	70,341
24	100,470	104,600
25	225,390	229,552

Takrorlash uchun savollar:

1. Profil nima va u qanday chiziladi?
2. Profilda qizil rangda nima tasvirlanadi?
3. Nivelirlash trassasi nima?
4. Nishablik nima va u qanday topiladi?

YERNI TEKISLASH. YUZANI KVADRATLAR USULIDA NIVELIRLASH

Yer tekislash ishlari hajmi, ya'ni qancha tuproq to'kilishi va kavlab olinishi maydonni nivelirlash natijasida aniqlanadi.

Maydonni nivelirlash yer tekislash va qurish uchun ajratilgan relefi kuchsiz ifodalangan joylarning yirik miqiyosli topografik planini tuzishda qo'llaniladi. Ixtiyoriy maydon yuzasini nivelirlab, uni qo'ozda gorizontallar bilan tasvirlash *yuzani nivelirlash* deyiladi.


Yerlarni an'anaviy usulda tekislash

Eng ko'p ishlatiladigan yerni tekislash uskunasi - bu traktorga o'rnatilgan, baland joydan erning pastiga qarab tuproq yuzasini ko'chirib tekislashga moslashgan mexanizm. Bu texnika ishlatilgandan keyin yer juda tekis ko'rinishi mumkin, ammo uning topografik notekisligi su'orishlar davrida yaqqol ko'zga tashlanadi. Ushbu uslubning qo'llanilishi oqibatida hosil bo'ladigan notekis yuza ishlab chiqarish harajatlarini yanada oshiradi, chunki su'orish suvidan foydalanish samaradorligi dalaning topografiyasiga bo'liq. Masalan, dala topografiyasining eng baland nuqtasi eng pastkiga nisbatan 10sm ga farq qiladi deylik. Bundaydalarning eng baland nuqtasini yetarlicha namlantirish uchun 1 gektar maydonga qo'shimcha ravishda 1000 m suv etkazilishi lozim. Shu bilan birgalikda, dala notekisligi sababli fermerlar eng baland nuqtalarni su'orish uchun me'yorida ko'proq suv yetkazib berganlarida, dalaning past joylarida ortiqcha suv to'planish holatlari kuzatiladi. Bu esa O'zbekistonda ko'p uchraydigan jiddiy muammo xisoblanadi. Shuningdek, dalada suvning notekis taqsimlanishi natijasida, bitta maydon xududidagi tuproq turli darajadagi sho'rlanishga ega bo'ladi. An'anaviy yerni tekislashda tuproq asosan bir

yo'nalishda ko'chiriladi, natijada vaqt o'tishi bilan yer yuzasi yanada notekis holatga keladi. Yuzasi notekis bo'lgan maydonlarda ekinlar durkun rivojlanmaydi, dalada begona o'tlar ko'payadi va hosil notekis yetilib pishadi - bularning barchasi hosildorlikni kamayishiga olib keladi.

O'zbekistonda yerni tekislash ishlari juda keng miqyosda olib boriladi. Fermerlar erlarni tekislash texnikasini ishlatmasliklariga asosiy sabab-uskunaning yo'qligi, ortiqcha sarf-xarajatlar mavjudligi va shu bilan birgalikda malakali ishchi kuchi yetishmasligidadir. Shuning uchun hozirgi kunga kelib ko'pchilik fermer va dehqonlar, xatto bu salbiy oqibatlariga olib kelishini bilsalar ham, tekislash ishlari hajmini kamaytirdilar. Bugungi kunda su'oriladigan maydonning 60 foizidan ko'proq qismi turli darajada sho'rlangan. Dala maydonlarida notekis suv taqsimoti va kuchli filtratsiya natijasida yer osti suvlarining sathi ko'tarilgan. Bunday degradatsiya jarayoni ekinlar hosildorligi pasayishining sabablaridan biridir.

Yerlarni lazer niveliri yordamida tekislash. Yerlarni lazer niveliri yordamida tekislash deganda tupro'ni bir joydan ikkinchisiga ko'chirish emas, balki suv resurslaridan samarali foydalanish va ularni tejash tushuniladi. Lazer nurlari yordamida boshqariladigan yerni tekislash uskunasi mukammal sinalgan va bu texnologiya suvni tejash, suv taqsimotini yaxshilash va su'orish suvidan samarali foydalanish uchun qulay hisoblanadi. Ushbu texnopogiyani to'plash natijasida ekinparning hosildorligi oshadi va qishloq xo'jalik maxsulotlarini ishlab chiqarishi yanada ortadi. Yetarlicha mabla'ajratilsa va fermerlar uchun o'quv mash'ulotlari tashkil qilinsa, lazer tekislash texnologiyasi O'zbekistonning barcha hududlarida tadbir qilinishi mumkin.



Yerning lazer niveliri yordamida tekislanishining sxematik ko'rinishi.

Yerni lazer nurlari orqali tekislaydigan uskuna o'tkazilgan va yuqori samarali texnologiya xisoblanadi. Lazer niveliri yordamida tekislangan dala maydonining yuzasi tekis bo'lib, unda su'orish suvining bir xil taqsimlanishi ta'minlanadi, ortiqcha suvlar chiqimi kamayadi va su'orish suvidan foydalanish samaradorligi oshadi, chap tomon). Tuproqni lazer niveliri yordamida tekislashning boshlan'ich harajatlari an'anaviy tekislashga nisbatan yuqori bo'lishiga qaramay, bu harajatlarda hosildorlikning yil sayin oshishi va su'orish suvning tejalishi hisobiga qoplanadi. Lazer niveliridan foydalanib o'tkazilgan tajribalar natijalariga ko'ra, oddiy usulda tekislangan dala maydoniga nisbatan 25 foizdan ortiq suv tejaladi, shu bilan birgalikda ekinlarning unib chiqishi, o'sishi va rivojlanishi yaxshilanadi. Yuqorida

aytib o'tilgan barcha majmualashtirilgan omillar begona o'tlarning kamayishi va ekinlar hosildorligining oshishiga olib keladi. Yerga ishlov berish puxtalik bilan amalga oshirilsa yoki resurs tejankor texnologiyalar qo'llanilgan bo'lsa, erni tekislash ishlari 5-8 yilda bir marta lazer niveliri yordamida amalga oshirilishi mumkin. Suvni tejash bilan birga qo'shimcha energiya sarfi ham kamayadi, chunki O'zbekistonning ko'p joylarida su'orish ishlari nasos orqali amalga oshiriladi. Har bir fermer lazer tekislagichini sotib olish imkoniyatiga ega emas. Ammo, fermerlar uyushmasi uchun xususiy fermerlarga kerakli bo'lgan jihozlar bilan ta'minlaydigan korxonalarini izlab topish imkoniyati mavjud.



Lazer niveliri yordamida tekislangan dalaning su'orilishi (chap) va ekinning unib chiqishi (o'ng).

Joyning reliefi va nivelirlashda ko'zda tutilgan maqsadga qarab maydon kvadrat kataklar, parallel chiziqlar, poligon usulida nivelirlanadi.

Bulardan eng ko'p foydalaniladigani kichikroq maydonning yirik miqiyosli topografik planini tuzishda kvadrat kataklar usulidir. Uzunasiga ketgan joyni nivelirlashda esa parallel chiziqlar yoki poligon usulidan foydalaniladi. Yuzani kvadratlar usulida nivelirlash uchun teodolit va po'lat lenta yordamida joyning reliefi murakkabligi tuzilayotgan plan miqiyosi va boshqa omillarni hisobga olib, tomonlari 10, 20, 30, 40, 50, 100 metrdan iborat kvadrat to'ri yasaladi. Kvadratlar uchlari qoziqlar bilan mustahkamlanadi.

Hisoblash ishlarida bo'lovchi nuqtalar nisbiy balandliklar va ularning o'rtachasi topiladi. Yopiq nivelir yo'lida bo'lanmaslik xatosi quyidagi ifoda yordamida hisoblanadi: $fh=10 \sqrt{n}$ (bu yerda n - bekatlar soni). Bo'lanmaslik xatosi yo'l qo'yarli bo'lsa, teskari ishora bilan nisbiy balandliklarga tarqatiladi. Bo'lovchi nuqtalardan biriga balandlik reykanan uzatilib, qolganlari balandliklari tuzatilgan nisbiy balandlikdan foydalanib aniqlanadi. Har bir bekatda asbob balandliklari $AG=NaQa$, kvadrat uchlari balandliklari esa $Ns=AG-s$ ifoda yordamida hisoblanadi va tegishli kvadratlar uchlari yoziladi.

Kvadrat uchlari balandliklari aniqlanganidan keyin nivelirlangan joyning ikkinchi sxematik plani chiziladi. Buning uchun nivelirlash qaydnomasi dala sxemasidan kvadrat uchlari balandliklari sm gacha yaxlitlab yoziladi. Shu balandliklar bo'yicha talab kilingan kesim balandligida ($h=0,25$ m yoki $h=0,50$ m da) gorizontallar o'tkaziladi. Natijada gorizontallarda tasvirlangan joy reliefi hosil bo'ladi.

Maydonni nivelirlashda maydonning katta kichikligi va kvadrat tomonlarining uzunligiga qarab bitta yoki bir necha bekatdan turib nivelirlash mumkin. Maydonni bitta bekatdan turib nivelirlashning iloji bo'lmasa, barcha kvadratlar uchun

nivelirlanadigan qilib bir necha bekatlar belgilanadi, bizning misolimizda 4 ta). Bunda kvadrat uchlari bo‘lovchi va oraliq nuqtalarga bo‘linadi.

Nisbiy balandliklarni hisoblash jadvali

Nuqtalar № i	Reykadan olingan sanoq		Nisbiy balandlik (h), m			N,m
	Orqadagi,a	Oldidagi,B	Hisob,h	O‘rta,h	Tuzatilgan.h	
Rp 11	1684 6371	0529 5214	+1155 +1157	+1156	+1156	19,525
N1						20,681
N ₁	0574 5262	1604 6288	-1030 -1028	-1029	-1029	20,681
N ₂						19,652
N ₂	0626 5312	1309 5997	-0683 -0685	-0684	-0684	19,652
N ₃						18,968
N ₃	1858 6546	1301 5989	+0557 +0557	+0557	+0557	18,968
Rp 11						19,525

Nivelirlash qaydnomasining dala sxemasi

		<u>0529</u>	<u>0574</u>			
		5214	5262			
	1340	0932	N ₁	0451	0.826	1022
<u>1684</u>						<u>1604</u>
6371	1067	0590	0790	1011	1204	6288
Rp						N ₂
<u>1301</u>						<u>0626</u>
5989						5312
	1047	1238	1321	0481	1002	
						1332
	0924	1677	1414		1661	0899
			<u>1858</u>	N ₃	<u>1309</u>	
			6546		5997	

Bekatda nivelir asbobi o‘rnatilib, kvadrat uchlariidagi reykalaridan bo‘lovchi nuqtalarda qora va qizil, oraliq nuqtalardan esa qora sanoqlar olinadi. Bu sanoqlar

nivelirlash qaydnomasi dala sxemasidagi tegishli kvadrat uchlarining yoniga yoziladi. Nivelirlanayotgan maydondagi bironta bo'lovchi nuqta repyerga bo'lash orqali uning yer balandligi (mutloq balandligi) topildi. Buning uchun bo'lovchi nuqtalarning nisbiy balandligi hisoblaniladi .

$$\text{Qora sanoq } H=a-b=1684-0529=+1155;$$

$$\text{Qizil sanoq } H=a-b=6371-5214=+1157;$$

$$h_{\text{u\`o}}=1155+1157/2=+1156.$$

Qora va qizil sanoqlar ayirmasidagi farq 4 mm dan oshmasa uning o'rtachasi topiladi, demak repyer 11 ga nisbatan N_1 bo'lovchi nuqta 1,156 m ga baland ekan. Maydonni nivelirlaganda yopiq nivelir yo'li hosil bo'ladi. Yopiq nivelir yo'lida nisbiy balandliklarning algebraik yig'indisi nolga teng bo'lishi kerak. Agar nol o'rniga boshqa biror miqdor chiqsa, u nivelirlash xatosi bo'ladi. U quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$\sum h=h_1+h_2+h_3+h_4=1,156+(-1,029)+(-0,684)+0,557=0.$$

Demak, bizning misolimizda yo'l qo'yilmagan

Yopiq nivelir yo'lida nisbiy balandliklarni xatolik cheki quyidagicha aniqlanadi: $\sum h_{\text{u\`e}}=\pm 10 \sqrt{n}$, (bu yyerda n–bekatlar soni). Bizning misolimizda 4 bekat shuning uchun $\sum h_{\text{u\`e}}=\pm 10 \sqrt{4}=\pm 20$. Demak, 20 mm gacha xatoga yo'l qo'yishimiz mumkin. Agar xatoga yo'l qo'yilsa, bunda qiymat teskari ishora bilan tarqatiladi va xatolik nisbiy balandlik ustuniga yoziladi. So'ngra repyer balandligi orqali keying bo'lovch nuqtalarning balandliklari aniqlanadi.

Misolimizda

$$HN_1=HR_{r11}+h_1=19,525+1,156+20,681;$$

$$HN_2=HN_1+h_2=20,681+(-1,029)=19,652;$$

$$HN_3=HN_2+h_3=19,652+(-0,684)=18,968;$$

$$HN_4=HN_3+h_4=18,968+0,557=19,525.$$

Har bir bekatda asbob gorizonti, ya'ni asbobning balandligi quyidagi ifoda orqali topiladi:

$$AG_1=NR_{r+a_1}=19,525+1,684=21,209;$$

$$AG_2=N_1+a_2=20,681+0,574=21,255;$$

$$AG_3=N_2+a_3=19,652+0,626=20,278;$$

$$AG_4=N_3+a_4=18,968+1,858=20,826.$$

Oraliq nuqtalar, ya'ni boshqa kvadratlar uchlarini yer balandliklari (N_s) asbob gorizonti orqali topiladi. $N_s=AG_s$ kvadrat uchlariga o'rnatilgan reykaning qora tomonidan olingan sanoq.

Misol uchun $N_s=21,209-1,340=19,869$. Shu kabi barcha kvadratlardagi oraliq nuqtaning balandligi tegishli bekatdagi asbob gorizontidan yer balandligini ayirib topiladi. Kvadrat kataklar berilgan miqiyosda, ya'ni 1:500 miqiyosda 4 sm o'lchamda chiziladi. Bu yer yuzasida 20 m ga tengdir. Kvadrat uchlariga hisoblangan yer balandliklari 1 sm gacha yaxlitlanib yoziladi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Maydonni tekislashning geodezik usullari ?
2. Maydonni kvadratlar usulda nivelirlashda masshtab tanlash?
3. Maydonni kvadratlar usulida nivelirlashda xo'jalik maydoning ko'rinishi va talab qilingan aniqlik nimaga bog'liq?
4. Gorizont deb nimaga aytiladi?
5. Relef deb nimaga aytiladi
6. Bog'lovchi nuqtalar qanday nivelirlanadi?
7. Oraliq nuqtalar qanday nivelirlanadi?
8. Asbob gorizonti nima va u qanday hisoblanadi?
9. Maydonni nivelirlashda xatolik cheki qanday hisoblanadi
10. Gorizont kesim balandligi tanlashda nimalarga e'tibor beriladi?

YER MAYDONLARINI HISOBLASH USULLARI

- Yuza hisoblashning analitik usuli
- Yuza hisoblashning grafik usuli
- Yuza hisoblashning mexanik usuli

1. Yuza hisoblashning analitik usuli

Yuza hisoblashning bir necha usullari mavjud: analitik, grafik va mexanik.

Yuzani analitik usulda hisoblash dalada o'lchangan natijalar bo'yicha aniklangan koordinatalardan foydalanishga asoslangan.

Agar xujaliklarining chegarasi buylab teodolit yo'llari o'tkazilgan bo'lsa, unda ularning yer maydoni poligon uchlarining koordinatalari bo'yicha hisoblanadi. Bundan tashkari yer bo'laklari va konturlarining yuzasi grafik usulda koordinatalar bo'yicha (plan bo'yicha aniklanadi) hisoblanadi.

Koordinatalar bo'yicha yuza quyidagi formulalar bo'yicha hisoblanadi:

$$2P = x_k(U_{k+1} - U_{k-1})$$

$$2P = U_k(X_{k+1} - X_{k-1})$$

Bu formulalar bo'yicha yuza hisoblanganda, eng avvalo, koordinatalarning ayirmalari $X_{k+1} - X_{k-1}$ va $U_{k+1} - U_{k-1}$ lar hisoblanadi, so'ngra esa ko'paytmalar $(U_{k+1} - U_{k-1})$ va $U_k(X_{k+1} - X_{k-1})$ lar hisoblanadi.

Bu usul aniq usul bo'lib, loyiha va planlarni tuzish uchun foydalaniladi va maydonni 1:1000 - 1:2000 aniqlikda o'lchash mumkin.

2. Yuza hisoblashning grafik usuli

Yuzani grafik usulda hisoblashning mohiyati shundan iboratki, bunda planda tasvirlangan yer bo'laklari eng oddiy geometrik shakllarga ya'ni uchburchaklar, to'rtburchaklar va trapetsiya shakllariga bo'linadi. Plandagi xar bir shaklning balandligi va asosi o'lchanib, ular bo'yicha yuza hisoblanadi. Yer bo'laklarining yuzasi shakllar yuzasining yi'indisiga teng bo'lishi kerak.

Lekin yer bo'laklarining chegarasidagi burchaklarining soni qancha ko'p bo'lsa, bu usulni qo'llash samarasi shuncha kam bo'ladi. Demak, ko'p sonli burchaklardan

iborat yer bo'laklarining yuzasini hisoblash uchun bu usulni qo'llash maksadga muvofik emas.

Yer bo'laklarning uchburchaklarga bo'lishda, uchburchaklar taxminan teng tomonli bo'lishi kerak (aniqro'q balandlik bilan asosining miqdori bir- biriga yaqinroq bo'lishi kerak).

Grafik usulda yuza o'lchash aniqligi joyda o'lchangan burchaklar va chizik uzunligining o'lchash aniqligiga bo'liq.

Yer bo'laklarining yuzasini grafik usulda aniqlash uchun quyidagi asosiy ma'lumotlarga ega bo'lish kerak: chiziq uzunligi, geometrik shakllarning burchaklari, uchburchaklar, trapetsiya va hokazolarning balandliklari.


To'rtburchak va kvadratning yuzasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$P = a \cdot b$$

Trapetsiya yuzasi: $S = 1/2 (a+b) \cdot h$

Uchburchakning yuzasi: $S = 1/2 a \times h$

Topografik kartada ko'pburchak shaklida konturning maydonini geometrik usulda topish uchun kontur oddiy geometrik shakllarga (uchburchak, to'ri to'rtburchak, trapetsiya va boshqa shakllarga) bo'linadi va har bir geometrik shakl kartada alohida –alohida o'lchanib, uning maydoni geometrik formulalar yordamida xisoblab topiladi. Buning uchun har bir shaklning maydoni kartaning yuza masshtabiga ko'paytiriladi. Maydonning to'ri topilganligini tekshirib ko'rish uchun barcha geometrik shakllar kartadan o'lchanadi va ikki marta o'lchash natijalarining o'rtachasi asos qilib olinadi. 1 - shakldagi 1:2000 masshtabli planda o'tloqning konturi ko'rsatilgan. Kontur 4 ta geometrik shaklga bo'lingan. Shakllarni geometrik usulda o'lchash natijalari 1jadvalda berilgan.



Geometrik shaklning nomeri	Geometrik shaklning nomi	Geometrik shaklning maydoni, sm ²
1	Trapetsiya	$1/2 \times 1,6 \times (2,8 + 2,0) = 3,84$
2	Uchburchak	$1/2 \times 1,2 \times 2,8 = 1,68$
3	Uchburchak	$1/2 \times 2,4 \times 1,6 = 1,92$
4	Trapetsiya	$1/2 \times 1,4 \times (0,5 + 1,0) = 1,75$
Jami:		9,19 sm ²

O'tloqning joydagi maydoni $S = 9,19 \text{ s sm}^2 \times 400 \text{ m}^2 = 3676 \text{ m}^2$. Maydonni bu usulda o'lchash aniqligi kartada chiziqlarning qanchalik aniq o'lchanganligiga bo'lik. Ma'lumki, kartada chiziqni o'lchash tsirkuli va ko'ndalang masshtab bilan 0,2 mm aniqlikda o'lchash mumkin. Demak, maydonni geometrik usulda yanada aniqroq o'lchash uchun yirik masshtabli kartadan foydalanish lozim. Qisqa chiziqni o'lchashda uzun chiziqni o'lchashdagiga nisbatan kattaroq xato ro'y berishini hisobga olib, ko'pburchak konturni iloji boricha yirikroq shakllarga bo'lish kerak. Geometrik shakllar ortiqcha cho'ziq bo'lmasligi, ya'ni ularning asosi bilan balandligi taxminan teng bo'lishi zarur. Kartada maydonni o'lchashda qo'pol xatoga yo'l kuymaslik, binobarin, aniqroq natijaga erishish uchun maydon ikki marta o'lchanadi; ikkinchi o'lchashda konturni boshqacha shakllarga bo'lish yoki uchburchaklar asosi bilan balandligini almashtirish zarur. Ikki marta o'lchashdan olingan o'rtacha arifmetik natija o'lchash natijasi bo'ladi. Geometrik usulda ikki marta o'lchash natijalarining bir-biridan farqi 1:200 dan katta bo'lmasligi lozim.

Mexanik usuldan foydalanganda maydon planimetr, paletka va boshqa asboblardan bilan o'lchanadi. Bu asboblardan kartadagi har qanday shaklning maydonini oson va tez aniqlash imkonini beradi.

Paletka yordamida o'lchash. Paletka shaffof material (qo'oz, oyna yoki plastik)ga chizilgan va oralarining kengligi bir xil bo'lgan parallel chiziqlardan sistemasidan yoki tomonlari 2-10 mm bo'lgan kvadrat turidan iborat.

Paletkalar xilma xil bo'ladi. Maydon o'lchashda paletka maydonni o'lchanayotgan kontur ustiga qo'yiladi va kontur ichiga to'ri kelgan kataklar sanaladi, yarim kataklar esa ko'z bilan chamalab bir biriga qo'shib to'liq kataklarga aylantiriladi. Keyingi kartaning yuzasini masshtabiga muvofiq, bitta katakning maydoni aniqlanadi. Ana shu maydon kataklarning umumiy soniga ko'paytirilsa, kartadagi konturning maydoni kelib chiqadi. Masalan, yuqoridagi shaklda ustiga paletka kuyilgan konturga 1 sm^2 lik 40 ta katak to'ri keldi; 1:1000 masshtabli kartada 1 sm^2 100 m^2 ga teng; demak, kartada o'lchangan konturning joydagi maydoni $40 \times 100 = 4000 \text{ m}^2$ bo'ladi. Kartaning masshtabi 1:5000 bo'lganda paletkaning har bir katagi 250 m^2 ga teng, konturning joydagi maydoni esa $40 \times 250 = 10\,000 \text{ m}^2$ bo'ladi. Maydonni paletka yordamida o'lchashda qanchalik yirik masshtabli karta (plan) ishlatilsa, maydon shunchalik aniq, ulchanadi.

3. Yuza hisoblashning mexanik usuli

Plan va kartalarda shakllar (ekin maydonlari, o'rmonlar, aholi yashaydigan joylar, ko'llar va h.k.) yuzasini mexanik usulda ham aniqlash mumkin. Bu usulda aniqlash uchun maxsus planimetr asbobidan foydalaniladi. Chiziqli, qutbli va elektron planimetrlar mavjud bo'lib, hozirgi paytda eng ko'p qo'llaniladigan qutbli planimetrdir.

1-Masala: Xo'jalikning yer maydonini plan masshtabini hisobga olgan holda hisoblab chiqing.

Dastlabki ma'lumotlar berilgan yer planini masshtabini talaba o'z varianta bo'yicha aniqlab grafik usulda maydonni hisoblab chiqarishi zarur.

Buning uchun berilgan plandan chizma qo‘ozga qora tushda nusxa ko‘chirib olinadi. So‘ngra oddiy geometrik shakllariga bo‘lib o‘lchagich masshtab shizg‘ich yordamida masshtab bo‘yicha yer maydonlari gektar hisobida chiqariladi. Hamma shakllari maydoni jamlanib, umumiy maydon qiymatiga tenglashtiriladi Umumiy maydon jamlangan yer maydonini nisbiy xatosi 1/100 dan oshmasligi kerak.

2-Masala: Yer maydonini ekin turlari bo‘yicha hisoblang.

Ekin turlari bo‘yicha hisoblangan yer maydonining yi‘indisi umumiy yer maydoniga teng bo‘lishi kerak. Ularning farqi

$F=\pm 0,04 \frac{M}{20000} \sqrt{P}$ dan oshmasligi kerak. Ifodadagi M – plan masshtabining maxraji. R- umumiy yer maydoni, hisoblangan xamma qiymatlari miqdori umumiy er maydoniga tenglashtiriladi. O‘lchangan qiymatlar hisoblash jadvaliga yoziladi. So‘ngra ekin turlari bo‘yicha eksplikatsiya tuziladi.

Vazifani bajarish tartibi:

- ❖ Xo‘jalikning yerdan foydalanish kontur planini nusxasi ko‘chirilab olinadi.
- ❖ Xo‘jalikda oldingi tuzilgan almashlab ekish loyihasini tarkibiy qismlari o‘rganilib chiqiladi.

Yer maydonlarini grafik usulda hisoblash jadvali

Kontur №	Asosi, m	Balandligi, m	Hisoblangan maydoni, ga	Tuzatishlar	Jamlangan konturalar maydoni, ga	Sof maydon, ga
1	2	3	4	5	6	7

Xo‘jalik chegarasidagi erlarning eksplikatsiyasi

Qatorlar №	Yerlarning nomi	Maydon, g	Shu jumladan aholi yashaydigan erlar chegarasida, ga
1	2	3	4

Takrorlash uchun savollar:

1. Xo‘jalik yer maydonlari hisoblashning qanday usullarni bilasiz?
2. Yuzani grafik usulda hisoblashda qanday geometrik shakllardan foydalaniladi?
3. Yuza hisoblashning mexanik usulida qanday asbobdan foydalaniladi?

MUNDARIJA

1	Topografik kartani urganish	4
2	Masshtablar. Masshtab turlari va ulardan foydalanish. Chiziq uzunligini o‘lchashni o‘rganish	23
3	Topografik kartalarning nomenklaturasi	30
4	Oriyentirlash. Berilgan rumb burchagi va chiziq uzunligi bo‘yicha plan chizish	32
5	Teodolit s‘emkasining planini tuzish. Umumiy ko‘rsatmalar.	40
6	Bo‘ylama profil chizish	46
7	Yerni tekislash. Yuzani kvadratlar usulida nivelirlash	50
8	Yer maydonlarini hisoblash usullari	55

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo‘raev D. O. – “Geodeziya”, Toshkent “O‘zbekiston” 2006. -280 b.
2. Muborakov F.M.– “Geodeziya”, Toshkent “Cho‘lpon” 2007. – 314 b.
3. To‘xtashev B., Azimboev S., Qarabaeva T., Berdiboev E., Nurmatov B. “Qishloq xo‘jalik melioratsiyasi va er tuzish fanidan amaliy va tajribaviy mashg‘ulotlar”. Toshkent 2013. – 187 b.
4. Qarabaeva T., Artukmetov Z. “Geodeziya asoslari” Toshkent.: “Arnaprint” – 2005. – 110 b.
5. Qarabaeva T., Berdiboev E. “Muxandislik geodeziya va topografik chizmachilik” Ma’ruza matn, Toshkent. 2015. –60 b.
6. Mirzaaliev T.M., Qarabaev J. va boshqalar - “Kartashunoslik”. - Toshkent., “Talqin” – 2012. – 240 b.
7. Muborakov F.M. “Geodeziya” Toshkent “O‘qituvchi” - 2013. – 368 b.
8. Muborakov F.M., Oxunov Z.D., Farmonov M. “Injenerlik geodeziyasi” Toshkent “Kart fabrika” 1990. – 64 b.

MUXAHANDISLIK GEODEZIYA VA TOPOGRAFIK CHIZMACHILIK

fanidan amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun uslubiy
qo‘llanma

Boshishga ruxsat etildi: _____2015. Qog‘oz bichimi (60x84)1/16
Ofset qog‘oz. Nashr bosma tabog‘i 2,0. Adadi 100 nusxa. Bahosi kelishilgan narxda.

O‘zbekiston Respublikasi Matbuot va axborot Agentligi ruxsatnomasiga asosan
Toshkent Davlat agrar universitetining tahririyat-nashriyot bo‘limi RIZOGRAF
apparatida chop etildi.

Toshkent – 140, Universitet ko‘chasi, 2 ToshDAU.